

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA'LIM” KAFEDRASI

EGAMBERDIEV BAXTIYORJON ABDUQODIR O'G'LI

**“G‘AZNACHILIK TIZIMI VA UNING O‘ZIGA XOS
JIHATLARI” MAVZUSINI O‘RGANISHDA AUDIOVISUAL
VA AUDIOVERTUAL USULLARINI QO‘LLASH**

**5140900 -“Kasb ta'lim” (5230600 - Moliya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Kasbiy ta'lim» kafedrası mudiri

_____ i.f.d.,prof. A. Omonov

«__»_____2014 y.

Ilmiy rahbar: _____p.f.n. kat.o'qit.S.Abdalova

Ilmiy maslahatchi:_____o'qit. O.Mirzaev

«__»_____2014 y.

TOSHKENT – 2014

Men, Egamberdiev Baxtiyorjon Abduqodir o'g'li ushbu BMinini mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Talabaning F.I.Sh. va imzosi, sana

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I bob. G‘AZNACHILIK TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. G‘aznachilik tizimi va uning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. G‘aznachilik tizimi va uning o‘ziga hos jihatlari mavzusini audiovisual va audiovertual usullar asosida o‘rganishning nazariy amaliy asoslari.....	17
II bob. G‘AZNACHILIK TIZIMI HOLATI VA UNI O‘QITISH METODLARINI QO‘LLASH AMALIYOTI.....	20
2.1. G‘aznachilik tizimini amaldagi holatini tahlili.....	20
2.2. G‘aznachilik tizimi va uning o‘ziga hos jihatlari mavzusini o‘qitishda audiovisual va audiovertual metodni qo‘llash va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	27
III bob. G‘AZNACHILIK TIZIMI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI MAVZUSINI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	38
3.1. G‘aznachilik tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	38
3.2. G‘aznachilik tizimi va uning o‘ziga hos jihatlari mavzusini o‘qitishda audiovisual va audiovertual usullarini qo‘llab o‘qitishning samaradorligini oshirish yo‘lari.....	47
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	56
ILOVALAR.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Musaqillik yoʻlidan dadil odimlayotgan mamlakatimizda ijtimoiy - iqtisodiy isloxotlar boskichma-boskich amalga oshirilmoqda. Davlat bosh isloxotchi sifatida iqtisodiyotning shakli va yuritilish tartibini bozor talablariga uzluksiz ravishda moslab bormoqda. Mulklarni davlat tasarrufidan chikarish va koʻp mulkchilikni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, moliya - solik va byudjet siyosatini xalqaro andozalar talablari asosida tashkil qilish borasida muxim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, moliyaviy va solik, siyosati davlat byudjeti va respublika aholisining manfaatlariga karatilgan. Bunday oʻzgarishlar oʻzining ijobiy natijalarini bermokda. Buni mamlakat yalpi ichki maxsuloti hajmining oshib borayotganligi, yil sayin inflyasiya darajasining pasayayotgani, aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligidan ham bilsa boʻladi. Musaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga oʻtishi sharoitida, demokratik davlat qurish yoʻlidan borayotgan pallalarda ijtimoiy xayotimizning barcha soxalarida boʻlgani kabi byudjet tizimida ham chukur oʻzgarishlarni amalga oshirish xozirgi kunning asosiy talabidir.

Mamlakatning iqtisodiy siyosatini barqaror amalga oshirishida davlat moliyasi asosiy funksiyani bajaradi. Davlat moliya tizimining asosini byudjet va Gʻazna tizimi tashkil etadi. Gʻazna tizimi bir tomondan, resurslarning xal qiluvchi qismini oʻzida jamlaydi, ikkinchi tomondan esa barcha moliya boʻgʻinlari va muassasalarining oʻzaro aloqa dorligini taʼminlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Oʻzbekistan Respublikasi byudjet tizimida muxim tarkibiy qismni maxalliy byudjetlar tashkil etadi. Oʻzbekistan Respublikasi iqtisodiyotida roʻy berayotgan tub oʻzgarishlar byudjet jarayoni va byudjetning huquq va majburiyatlarini bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruxida kayta koʻrib chikishni talab etmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat moliyasini boshqarish Qosimova G, davlat byudjeti Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X, Djamalov X, Aliev S, byudjet daromadlari va xarajatlari Malikov T.S, O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlari Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V, g'aznachilik faoliyatini tashkil etish, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi, davlat moliyasini boshqarish Qosimova G, ta'limda informatsion texnologiyalar va komp'yuter vositalari Kirilova G.I, ta'limda innovatsion texnologiyalar Ishmuhamedov R.Abduqodirov A.Pardaev A.lar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida g'aznachilik tizimi mohiyatini yoritish va uning faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. □Byudjet istiqboli va uni daromadini mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi rolini yoritish; byudjet ijrosining g'aznachilik tizimining tashkil etish zaruriyati va ahamiyatini o'rganish; davlat byudjeti mablag'larini maqsadli foydalanishda g'aznachilik tizimining rolini yoritish; g'aznachilik tizimini amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berish; g'azna ijrosini daromadlar yig'imi va xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga ta'sirini o'rganish va tahlil qilish; g'azna munosabatlarini barqarorligini ta'minlash samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash.

Oliy ta'lim muassasalarida g'aznachilik tizimiga oid fanlarni o'qitishning nazariy va uslubiy jihatlarini ko'rib chiqish, tarkibi bilan tanishtirish. G'aznachilik tizimi va uning o'ziga xos jihatlarini o'rganishda audiovisual va audiovirtual usullarini qo'llash.

Tadqiqotning ob'ekti - O'zbekiston Respublikasining g'azna tizimi va uni mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi jarayonlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti - g'azna tizimi va uni faoliyatini tashkil etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati. Gʻaznachilik tizimi va uning oʻziga xos jihatlari oʻrganildi. Oliy taʼlim muassasalarida gʻaznachilikni tashkil etishning mazmuni, vositasi va pedagogik texnologiyalari yoritib berildi. Ulardan iqtisodiyot oʻqituvchilari oʻz faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

BMIning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan hamda 1 ta jadval, 4 ta rasmdan iborat boʻlib, jami 60 betda mujassamlashgan.

BMIning asosiy qismi va mazmuniga qoʻyilgan talablar. BMIning asosiy qismi 3 bobdan iborat boʻlib, unda muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obʻekti, predmeti, nazariy-amaliy ahamiyati, BMIning tarkibiy tuzilishi va hajmi, asosiy qismi va mazmuniga qoʻyilgan talablar keltirilgan. Mavzuning birinchi bobida gʻaznachilik tizimining nazariy asoslari, gʻaznachilik tizimi, uning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, Gʻaznachilik tizimi va uning oʻziga hos jihatlari mavzusini audiovisual va audiovertual usullar asosida oʻrganishning nazariy amaliy asoslari; ikkinchi bobida - gʻaznachilik tizimi holati va uni oʻqitish metodlarini qoʻllash amaliyoti, gʻaznachilik tizimini amaldagi holatini tahlili, gʻaznachilik tizimi va uning oʻziga hos jihatlari mavzusini oʻqitishda audiovisual va audiovertual metodni qoʻllash va uning oʻziga xos xususiyatlari; uchinchi bobida - gʻaznachilik tizimini takomillashtirish yoʻllari, gʻaznachilik tizimi va uning oʻziga hos jihatlari mavzusini oʻqitishda audiovisual va audiovertual usullarini qoʻllab oʻqitishning samaradorligini oshirish yoʻlari yoritib berildi.

I - BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. G‘aznachilik tizimi va uning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Mustaqillik yo‘lidan dadil odimlayotgan mamlakatimizda ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat bosh islohotchi sifatida iqtisodiyotning shakli va yuritilish tartibini bozor talablariga uzluksiz ravishda moslab bormoqda. Mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va ko‘p mulkchilikni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, moliya - soliq va byudjet siyosatini xalqaro andozalar talablari asosida tashkil qilish borasida muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, moliyaviy va soliq, siyosati davlat byudjeti va respublika aholisining manfaatlariga qaratilgan. Bunday o‘zgarishlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Buni mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining oshib borayotganligi, yil sayin inflyasiya darajasining pasayayotgani, aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligidan ham bilsa bo‘ladi.

Mustaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida, demokratik davlat qurish yo‘lidan borayotgan pallalarda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi byudjet tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir.

Mamlakatning iqtisodiy siyosatini barqaror amalga oshirishida davlat moliyasi asosiy funksiyani bajaradi. Davlat moliya tizimining asosini byudjet va g‘azna tizimi tashkil etadi. G‘azna tizimi bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o‘zida jamlaydi, ikkinchi tomondan esa barcha moliya bo‘g‘inlari va muassasalarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy byudjetlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar byudjet jarayoni va byudjetning huquq va majburiyatlarini bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, «Iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlangan hamda moliyaviy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirishda davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi».

G'aznachilik tizimi byudjet tizimi kabi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarining butun majmui asosida shakllanadi. Barcha davlatlarda xo'jalik sub'ektlarning faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) va milliy daromad (MD) yaratiladi. Moddiy ishlab chiqarish darajasida ishlab chiqarilgan milliy daromad taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o'tadi. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) va milliy daromad (MD) qayta taqsimlashda va foydalanishda g'azna muhim vazifani bajaradi. Mamlakatda MD ni qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismi pul shaklida byudjetga tushadi va moliyaviy resurslarning markazlashgan fondini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi». G'azna tizimi bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishlarning, byudjet munosabatlarida mustaqil bo'lgan davlat tashkilotlari va fondlarining majmuidir. Byudjet tizimi davlat moliyaviy tizimining asosiy zvenosi hisoblansada, byudjet bmalg'larini boshqarish borasida g'azna tizimiga katta kafolatlar berilgan.

Ijtimoiy - iqtisodiy vazifalarning to'liq bajarilishi bevosita, davlat byudjeti daromadlariga, ushbu mablag'lardan samarali foydalanishga bog'liq. Davlat, bosh islohotchi sifatida, byudjet daromadlarini ko'paytirish va ulardan ustuvor

yoʻnalishlar boʻyicha samarali foydalanishga qaratilgan muhim tadbirlarni amalga oshirmoqda. Maʼlumki, davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil qiladi. Byudjet daromadlarining shakllanishida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Soliq qoʻmitasi, uning joylardagi Davlat soliq inspeksiyalari xodimlarining hamda Davlat Bojxona qoʻmitasi vakillarining xizmatlari katta. Lekin, byudjet mablagʻlarini maqsadi xarajat qilish, uning nazoratini taʼminlash borasida maʼlum muammolar mavjud. Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, byudjet daromadlari va xarajatlari oʻrtasida asossiz uzilishlar, byudjet tashkilotlari xodimlarining belgilangan vaqtda banklar tomonidan moliyalashtirilmaslik holatlari tez - tez uchrab turibdi. Davlat byudjeti mablagʻlaridan foydalanuvchilar tomonidan ushbu mablagʻlardan maqsadli foydalanmaslik, oz boʻlsa-da, mazkur mablagʻlari noqonuniy yoʻllar bilan oʻzlashtirish hollari ham koʻzga tashlanmoqda.

Bugungi kunda davlat byudjeti mablagʻlarining 55 foizga yaqini ijtimoiy sohalarga yoʻnaltirilgan. Xalq taʼlimi, oʻrta maxsus va oliy taʼlim, tibbiyot sohalari, mudofaa, huquqni himoya qiluvchi organlar, viloyat boshqaruv organlari, ijtimoiy soha, ularning barcha - barchasi, asosan davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilib kelinadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar majmuida davlat moliyasini boshqarishning yangi tizimini shakllantirish muhim vazifa disoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda qator yillar mobaynida davlat moliyasini boshqarish tizimi isloh qilib kelinmoqda.

2006 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetining gʻazna ijrosi toʻgʻrisida»gi Qonun Vazirlar Mahkamasining «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini tayyorlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori asosida ishlab chikildi. 2004 yil 31 dekabrda qabul kilingan «Asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichparni prognoz qilish va 2005 yilga mupjallangan Davlat byudjetining parametrlari toʻgʻrisida»gi qarorga muvofiq 2005 yil 1 iyundai Samarqand viloyatida va respublika byudjetidan

moliyalanadigan ayrim byudjet tashkilotlarida davlat byudjet g'azna ijrosining ayrim unsurlarini tajriba sifatida joriy etish boshlandi.

Mazkur jarayon muvaffaqiyatli kechganligi bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda Qarorida 2006 yilda Samarqand viloyatida davlat byudjeti g'azna ijrosining mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish, shuningdek, ushbu mexanizmlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida, 6 yil 18 dekabrda Qarorida esa 2007 yilda Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida joylashgan byudjet tashkilotlari uchun bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish uqtirildi.

Bundan tashqari, davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish hisobidan byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari boshqarishning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralda qabul qilingan «Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, Moliya vazirligining g'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. So'nggi yillarda byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini tashkil etish chora-tadbirlarini jadallashtirish respublika byudjetni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Vaholanki, hozirgi vaqtda «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 37-moddasiga muvofiq, davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, davlat daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Davlat byudjetining kassa ijrosini bunday tashkil etish bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat: byudjet mablag'larini oluvchilarning hisob raqamlaridagi qoldiqlar ko'rinishida byudjet mablag'larining sochilib ketishi, davlat byudjeti mablag'larining maqsadli

sarflanishini oldindan aniqlash va joriy nazoratni yo'lga qo'yish imkoniyatining mavjud emasligi, davlat byudjeti va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni jamlash va shakllantirish jarayonining uzunligi. G'aznachilik tizimining joriy etilishi yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qiladi va ayrim byudjetlarda hosil bo'ladigan vaqtinchalik kassa uzilishini tezkor tartibga solish uchun yagona g'aznachilik hisob raqami orqali mablag'larni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash, barcha darajadagi byudjet mablag'larining jipslashgan boshqaruvini ta'minlash; byudjet tashkilotlari tomonidan (g'aznachilik organlari oldida) amalga oshirilgach xarajatlarning vasseliligini tasdiqlash (schet-fakturalar, yuk xatlari, shartnomalarning mavjudligi, tovarlar, ishlar va xizmatlar me'yorlariga rioya etilishi) mexanizmini joriy etish yo'li bilan ajratiladigan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan oldindan va joriy moddalar bo'yicha nazoratni o'rnatish; byudjet tashkilotlarining xarajatlarini byudjet mablag'larini tasarruf etuvchilar, shu jumladan, vazirliklar va idoralarning bank hisob raqamlarini chetlab o'tgan holda, tovarlar, ishlar va xizmatlar etkazib beruvchilarining bevosita o'zlariga to'lash; byudjet mablag'larini oluvchilar xarajatlarining o'z vaqtida va asosli tarzda to'lanishini ta'minlash hamda byudjet hisob raqamlaridagi foydalanilmayotgan mablag'larning surunkali turib qolishiga barham berish; barcha darajadagi byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash sifatini yaxshilash va ularni taqdim etish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonun davlat byudjeti g'azna ijrosi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi hamda davlat byudjetining g'azna ijrosi, g'aznachilik, yagona g'azna hisob varag'i, davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalterlik hisobi, hisob varaqlarining yagona rejası kabi yangi tushunchalar va ta'riflarni joriy etadi. Qonunda yana shu narsa belgilab qo'yilganki, byudjetning barcha daromadlari, xarajatlari, byudjet takchilligini moliyalash maibalari, byudjet ijrosi jarayonida amalga oshiriladigan operatsiyalar davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi hisob varaqlarining yagona rejasiga asoslangan byudjet hisobiga olinishi lozim.

Tabiiyki, yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishlarni belgilangan muddatlarda joriy etish uchun byudjet hisobi va hisobotlarining yangi tizimi ishlab chiqilishi kerak. Yangi tizim nafaqat byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini, balki moliyaviy yil natijalari sarhisob qilinganda ulardan har bir byudjet yili bo'yicha foydalanish samaradorligini nazorat qilishi shuningdek, davlat aktivlari va majburiyatlarini ob'ektiv baholash imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Shunday kilib, istiqlol yillarida davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimi va uning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi. Mazkur tizimning amalga oshirilishi davlat byudjeti mexanizmini takomillashtiradi, davlat mablag'larining tejalishini, ulardan maqsadli foydalanishni hamda byudjet tizimining samaradorligini ta'minlaydi. G'aznachilik tizimining tuzilmasi uch pog'onali bo'ladi: Birinchi pog'ona - Respublika bo'yicha Markaziy g'aznachilik G'aznachilik hisobvaraqlaridagi mablag'lar harakatini boshqaradi va davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritadi. Qonun bilan belgilangan tashkilotlarga byudjet ijrosi to'g'risida tegishli ma'lumotnomalar beradi. Quyi g'aznachilik idoralari ishini boshqaradi, ulardan byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot va hisobotlarni qabul qiladi va quyi organlar tomonidan byudjetning ijrosini qonunchilikka binoan ta'minlaydi. Ikkinchi pog'ona - viloyat g'aznachilik boshqarmalari, mahalliy byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va xarajatlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Viloyat byudjeti mablag'larining harakatini boshqaradi. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi, quyi g'aznachilik organlari va byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi.

Uchinchi pog'ona – shaharlarda, tumanlarda va shaharlardagi tumanlarda g'aznachilik bo'linmalari, hududda byudjetning daromad qismining shakllantirishi va byudjet muassasalar bo'yicha xarajatlarning maqsadli moliyalashtirilishini ta'minlaydilar. G'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritadilar va hududda daromadlar va xarajatlar bo'yicha byudjet ijrosi to'g'risida yuqori g'aznachilik organlariga axborot beradilar. «Davlat moliyalarini isloh

qilish» loyihasini amalga oshirish bosqichlari asosiy elementlari 1 - chizmada keltirilgan. “Davlat moliyalarini isloh qilish” loyihasini amalga oshirishning asosiy bosqichlari davlat byudjetini g‘azna ijrosi byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to‘lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdorliklarni keskin qisqartirish, ya’ni davlat byudjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog‘onasiga chiqarishdir.

1-chizma



G‘aznachilik tizimi huquqiy jihatdan shakllantirilgan kunga qadar davlat byudjeti mablag‘larin maqsadli foydalanish bo‘yicha hududlarning moliya organlari va banklar ma’sul edilar. Hozirda ushbu vazifa – g‘aznachilik tizimi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. G‘aznachilik tizimi faoliyati deganda, davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga (schyotiga) kiritish va ushbu hiisobvara (schyoti) orqali byudjet xarajatlarini amalga oshirish

tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, endilikda davlat byudjetining g'azna ijrosi yagona organ bo'lgan g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Bu, o'z navbatida, davlat byudjeti daromadlarining xarajatlari ustidan nazoratning keskin kuchaytirilishiga olib keladi. Hududlarda tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda g'aznachilik boshqarmalari tuzildi.

Respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachilik tizimi G'aznachilik bo'linmalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari xizmat ko'rsatadigan tizim sifatida yuzaga keldi.

Me'yoriy hujjatlarda g'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagicha qilib belgilangan: davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish, davlat byudjeti mablag'larinng tushumi va maqsadli sarflanishini nazorat qilish, davlat byudjeti mablag'larini boshqarish, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshiririga asosan, to'lovlarni amalga oshirish, byudjet tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni ro'yxatga olib, ularning bajarilishini nazorat qilish, davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida axborotlarni umumlashtirishdan iborat.

Respublikamizda g'aznachilik tizimini joriy qilishdan oldin ushbu sohadagi jahon amaliyoti o'rganildi. Ushbu jarayonning huquqiy asoslari yaratildi. Ma'lumki, jahon amaliyotida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish va uning nazorati quyidagi shakllardan birida, ya'ni bank tizimi orqali, g'aznachilik tizimi orqali, aralash tizim (moliya va bank tizimlari) orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, misol uchun, Fransiyada davlat byudjeti daromadlarini mustaqil faoliyat yuritayotgan g'aznachilik vazirligi boshqaradi, Buyuk Britaniyada G'aznachilik Departamenti Soliq, politsiyasining ayrim vakolatlarini o'z zimmasiga olgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga yaqin bo'lgan Malayziya, Singapur, Indoneziya kabi mamlakatlarda byudjet mablag'lari ijrosining g'aznachilik shakli keng o'rin olgan. Shunday kilib, mamlakatimizda davlat

byudjeti ijrosining bank tizimidan uzimizga mos keladigan g'aznachilik tizimini joriy etishga kirishildi.

G'aznachilikning tashkil etilishi munosabati bilan ma'muriy-boshqaruv xodimlarining ushbu sohadagi xarajatlari ko'payishi ko'zga tashlanadi. Vaholanki, mamlakatimizda boshqaruv xarajatlarini 20-22 foizga kamaytirish dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan.

Aytish joizki, g'aznachilik faoliyatiga oid hukumat qarorlarida ushbu tizimning joriy etilishini muayyan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash xususiyatiga qarab, byudjet tashkilotlarining moliya - iqtisod xizmatlari xodimlarini maqbullashtirish va 25 foizgacha qisqartirish evaziga amalga oshirish ko'zda tutilgan. Davlat byudjetining g'azna ijrosi ilgari faoliyat ko'rsatib kelgan moliya organlari tarkibiy tuzilmasi va xodimlar sonini (shtatini) kiskartirish hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma - bosqich o'tilmoqda, oldindan uning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan: 2004 yil 26 avgustida O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi (2006 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritilishi ko'zda tutilgan edi). Mazkur qonun 18 ta moddadan iborat bo'lib, g'aznachilik tushunchasi, davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplarini (tamoyillarini), g'aznachilikning asosiy vazifalari, davlat byudjeti xarajatlarini amalga oshirish tartibi, g'aznachilik sohasida hisob - kitob ishlarini yuritish, buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish masalalarini o'z ichiga oladi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi «Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53 - sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachilik to'g'risida Nizomi» qabul qilindi. G'aznachilik tizimini joriy etishda bu sohada buxgalteriya hisobini yuritish masalalari alohida o'rin tutadi. Bugungi

kunda g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq, bo'lgan buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlar ham qabul qilingan.

Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Byudjet mablag'larini tasarruf qiluvchilarning (oluvchilarning) shaxsiy schyotlarini ochish va berkitish bo'yicha vaqtinchalik qoidalar» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 24 iyulda 1600 – sonli raqam bilan ro'yxatga olingan), «O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona schyotlar rejasi» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 3 mayda 1570 - sonli raqam bilan ro'yxatga olingan), «Samarqand viloyati mahalliy byudjeti g'azna ijrosining hisobi bo'yicha vaqtinchalik qoidalar» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 24 iyulda 1599 - sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) larni kiritish mumkin. Huquqiy - me'yoriy hujjatlar g'aznachilik faoliyatining keskin rivojlanib borishi tufayli yanada kengaytiriladi va albatta takomillashtirilishi ta'minlanadi.

G'aznachilik tizimining joriy etilishi tufayli, byudjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan barcha umumta'lim maktablariga alohida buxgalterlar tayinlanadigan bo'ldi. Mamlakatimizda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktablari mavjud. Nisbatan o'quvchilar soni ko'p bo'lgan maktablarga bittadan buxgalter tayinlanganida ham, o'rtacha 7-8 mingta buxgalter kerak bo'ladi. Avvalgi halk maorifi bo'linmalaridagi ko'p sonli markazlashtirilgan buxgalteriyalar, endilikda ixchamlashtirildi. Byudjet sohasidagi bunday tarkibiy o'zgarishlar bizning oldimizga ham yangicha vazifalar qo'ymoqda. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tish munosabati bilan byudjet tashkilotlarining barcha moliya - hisob xodimlari o'z malakalarini oshirishlari yoki bulmasa, qayta tayyorlashdan o'tishlari zarur bo'ldi.

1.2.G‘aznachilik tizimi va uning o‘ziga hos jihatlari mavzusini audiovizual va audiovertual usullar asosida o‘rganishning nazariy amaliy asoslari

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sifati va garovi deb bilgan. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm– fan, kasb–hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayon uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi.

1989 yil 28 noyabrda O'zbekiston Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqida I.Karimov ilm–fanni yuksaltirish borasida mavjud muammo va vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Unda fan sohasidagi kadrlarni jadal etishtirish va yoshartirish uchun, intellektual imkoniyatlarni keskin darajada oshirish uchun Respublika rahbariyati zarur mablag'larni, jumladan, valyuta mablag'larni ajratishga, tegishli tashkiliy masalalarni hal qilishga tayyor ekani ta'kidlandi. “Ta'lim mazmuni va sifatini ya'nada takomillashtirish masalalari yuzasidan ta'lim sifati va samaradorligi pedagogning kasbiy salohiyati, pedagog mahoratiga bevosita bog'liq bo'lgani sababli “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yangi tizimini yaratish, mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berilgan” deb ta'kidlab o'tilgan. Ta'lim jarayoniga audiovizual va audiovertual usullarini tatbiq qilinishi o'qitish usullariga yangicha yondashuvni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, fanni o'qitish usullarining ssenariylarini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda mamlakatimizda o'quv jarayonida zamonaviy audiovizual va audiovertual usullarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratini

takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etishga katta xissa qo'shmoqda.

O'quv–tarbiya ishlari jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish, hamda talabalarni zamonaviy audiovizual va audiovertual vositalardan amaliy mashg'ulotlarda keng ko'lamda foydalanishini yo'lga qo'yish muhimdir.

Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va audiovizual va audiovertual savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi. Ma'ruza, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko'rgazmali namoyish etish vositasi sifatida plakatlari, qo'llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproskoplar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi.

Komp'yuter va mul'timediali proektorning paydo bo'lishi ma'ruzachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo'rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkonini beradi.

Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish 80% va eshitish 15% a'zolari orqali qabul qiladi. Audiovizual va audiovertual usullar ushbu muhim sezgi a'zolarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd–shou, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali insonlarning e'tiborini ko'proq jalb qilinadi. Shundan kelib chiqib, audiovizual va audiovertual usullar ma'lumotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Video texnologiyalar ma'lumotlarni boshqarishga imkon beradi, ya'ni interfaol bo'lishi mumkin. Audiovizual va audiovertualli taqdimot ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni ta'minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma'lumotlarni ko'radi va o'zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma'lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafikalarini o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining uzoqligini ta'minlaydi.

Audiovizual va audiovertualning asosiy tushunchalari

Vizual — ko'z bilan ko'rish (hech qanday moslama yoki optik asbob yordamisiz); masalan, vizual kuzatish, vizual axborot.

Vizuallashtirish (lot. visualis — ko'z bilan ko'rish) — 1) jismoniy hodisa yoki jarayonni ko'z bilan ko'rish uchun qulay shaklda berish; 2) *inf.-da*, qurilma (display, yozuv hosil qiluvchi va b.)da ob'ektlar va jarayonlarni tabiiy yoki shartli tasvir tarzida aks ettirish. Mavjud obraz namunasi bo'lib, fotosurat hisoblanadi, shartlisi esa diagrammadir.

Virtual — 1) mumkin bo'lgan; bu muayyan sharoitlarda bo'lishi mumkin yoki lozim; 2) kompyuter grafikasi vositalarida yaratiladi (20- asr oxiri).

Virtual reallik, virtual realiti (ing. virtual reality, virtual — imkoniyat darajasida, mumkin bo'lgan va reality — reallik, mavjudlik) — «tasavvuriy reallik» — *tex., inf.-da*, kompyuter qurilmalar yordamida mavjud vaziyatni sodir etish (tovushlar, ko'rinadigan obrazlar, jismoniy, taktil his etish, masalan, sensor qo'lqoplar bilan); asosan o'quv maqsadlarida foydalaniladi (uchuvchilar, tankchilar, sanoat korxonalaridagi manipulyatorlar va b. uchun). Ta'lim beruvchi programmalar, tizimlar va mujassamalar ishlab chiqishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri.

Virtuallik — *inf.-da*, foydalanuvchi uchun qulay tavsifdagi shartli EHM (real mavjud EHMda) qurish uchun programmachilar tomonidan foydalaniladigan usul.

I I -BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMI HOLATI VA UNI O‘QITISH METODLARINI QO‘LLASH AMALIYOTI

2.1.G‘aznachilik tizimini amaldagi holatini tahlili

Jahon tajribalari ko‘rsatadiki, turli mamlakatlar g‘aznalariga har xil vazifalar yuklatilgan edi. Ularning mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, Yangi vazifalar yuklatilar yoki olib tashlanar edi. Uzoq davom etgan urushlar sababli davlat boyligini kamayishi oqibatida g‘aznaga yangi vazifa, ichki va tashqi qarz majburiyatlarini ishlab chiqish yuklatilgan edi.

Ba’zi mamlakatlarda g‘aznachilik tasdiqlangan byudjet asosida byudjet tashkilotlariga faqatgina resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, bu g‘aznachilikning roli sust bo‘lishi mumkin.

Agar g‘aznachilikning roli faol bo‘lganda xarajatlarni to‘lash majburiyatlarining limitlarini oldindan ko‘zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi. G‘aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi shundan iboratki, davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga ta’sir etadi.

G‘aznachilik deb ataladigan organlar davlat moliyasini boshqarishga taaluqli turli vazifalarni bajaradilar. «Hukumat tomonidan moliyaviy operatsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan.» Davlat moliyasini boshqarish. Byudjetni ijro etish. Buxgalteriya hisob kitobini yuritish. Nazorat qilish va baholash.

Davlat moliyasini boshqarishni o‘zi turli yo‘nalishlarga ega:

a) naqd mablag‘larni boshqarish. Byudjet daromadlarini ijrosidagi bu faoliyatni yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: soliqlarni va boshqa tushumlarni yig‘ish; daromadlarning tushishini nazorat qilish; tushumlarni yig‘ishda bank bilan bo‘ladigan munosabatlarni amalga oshirish; davlat boshqaruv organlarining turli darajalari o‘rtasida daromadlarni taqsimlash; resurslarni taqsimlash yoki limitlarni belgilash; xarajatlarni moliyalashtirish uchun talabnomalarni tasdiqlash va ularni to‘lash.

b) Moliyaviy rejalashtirish. Davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun kerak bo'ladigan g'aznachilikning yagona hisob raqamiga tushadigan tushumlarni taxminlashtirishni ko'zda tutadi.

v) Davlat qarzlarini boshqarish.

g) Davlatning moliyaviy aktivlari ustidan nazorat qilish.

Biz mazkur bo'limda davlat tuzilishi turlicha bo'lgan AQSH, Yaponiya, Fransiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozoqiston Respublikasi mamlakatlari misolida g'aznachilikning funksiyalarini qanday taqsimlanishini taxlil qilib ko'ramiz. Avstraliyada vazirlik maqomiga ega bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri xukumatga bo'ysunadigan g'aznachilik departamenti mavjud. Uning asosiy vazifasi tushumlarni yig'ishdan iborat. G'aznachilik departamenti tarkibida Soliq boshqarmasi joylashgan bo'lib, g'aznachilik departamenti shu boshqarma orqali soliq to'lovchilar bilan muomalada bo'ladi va barcha soliq, tushumlarni yig'ib oladi.

Tashqi tushum bilan bojxona xizmati shug'ullanadi. Byudjetning xarajatlar qismining ijrosi byujetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida amalga oshiriladi. Avstraliyada g'aznachilik vazifasini G'aznachilik departamentidan tashqari Moliyaviy departament bajaradi. Mamlakatda davlatga qarashli mablag'lar g'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi. Moliyaviy departament bankda yagona hisobraqamni amal qilish mexanizmi uchun shart-sharoit va usullarni belgilaydi. Fransiya g'aznachilikni tashkil etilishi 12-14 asrlarga to'g'ri keladi. Fransiya g'aznachilik funksiyalari Davlat g'aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh direksiyasi o'rtasida bo'lingan. Har ikkala tashkilot yuqori tashkilotlarning ikkinchi pog'onasi hisoblanadi: Davlat G'aznasi Moliya Vazirligining, Davlatning hisob-kitob yuritish bosh direksiyasi Byudjet Vazirligining tarkibiga kiradi. Fransiya barcha moliyaviy resurslar g'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi. Bu mablag'larning miqdori Markaziy bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisobram bilan nazorat qilinadi.

Davlat buxgalterlari byudjet mablagʻlari taqsimlovchilarini moliyaviy maslahatchilaridir. Davlat gʻaznasi quyidagilarni nazorat qiladi:

1.Daromadlar sohasida: A) davlatning qarz talabnomalarini undiradi; B) davlat muassasalarining har bir guruxi uchun qabul qilingan amaldagi qonun xujjatlarida va nizomlarda koʻzda tutilgan daromadlar olishga ruxsat beradi.

2.Xarajatlar sohasida: A)byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarining vakolatlarini nazorat qiladi. B) kreditlarning mavjudligini nazorat qiladi. S) qarz majburiyatlarida koʻrsatilgan muddatlarni nazorat qiladi. D) xarajatlarini aniq byudjet tasnifi boʻyicha amalga oshirilishini nazorat qiladi.

3. Mol-mulk sohasida A) mulk egalarining xuquqlarini, imtiyozlarini, ipotekalarni nazorat qiladi. B) buxgalteriya hisob-kitobi olib boriladigan mol-mulkni saqlanishini nazorat qiladi. Gʻaznachilik quyidagi daromadlarni yigʻilishini taʼminlaydi: toʻgʻri soliqlar; audio vositalaridan foydalanganlik uchun yigʻim; davlatning soliqsiz toʻlovlari (masalan, jarimalar) mahalliy xokimiyat boshqaruv organlariva mahalliy davlat tashkilotlarining soliq yigʻimlari.

Yaponiyada gʻaznachilikni bajaradigan funksiyalarining tashkiliy sxemasi oʻziga xos xususiyatga ega. Bu mamlakatda gʻaznachilikni bajaradigan funksiyalari gʻaznachilik boʻlimiga qarzlarini boshqarish boʻlimiga, moliya boʻlimiga, byudjet boʻlimiga, xuquqiy boʻlimga va byudjetni ijro etish boʻlimiga yuklatilagan. Bu boʻlimlar byudjet byurosi tarkibiga kiradi.

Bu byurolar Moliya vazirligining boʻlinmalari hisoblanadi. Boʻlinmalarning nomidan qurilib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashtirilgan kichik boʻlinmalarga yuklatilgan. Yaponiyada gʻaznachilik boʻlimi kunlarga boʻlingan moliya rejasini tayyorlaydi. Shuningdek, byudjetni ijro etish boʻlimi bilan davlatni Yaponiya bankidagi hisobraqamdan toʻlanadigan toʻlovlarni va tushumlarni nazorat qiladi.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi tartib asosida tuzilgan. Gʻaznachilik qarzlarini boshqarishni amalga oshiradi, gʻaznachilikni bosh idorasi hisobraqamlarni roʻyxatdan oʻtkazadi va hisob-kitob yuritadi. Byudjetga

tushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqdan tashqari yig'imglar esa departamentlar orqali yig'iladi.

G'aznachilik asosiy funksiyasi g'aznachilikning yagona hisobraqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qiladi. SHuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to'langan barcha to'lovlar ham uning nazoratida bo'ladi. G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida xar oyda molya rejasini ishlab chiqadi, bu reja qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talabni aniqlashda ishlatiladi.

Rossiyada moliyasini boshqarishda Imperator Aleksandr 2 xukmronlik qilgan davrda yagona kassa masalasi qo'yilgan. Moliya vazirligi uchun kassa shuning uchun kerak ediki, bir tomondan tushayotgan davlatning barcha daromadlarini birlashtirish, ikkinchi tomondan g'aznadan to'g'ridan –to'g'ri kredit berish yo'li bilan davlat xarajatlarini moliyalashtirishni amalag oshirishdan iborat. O'sha davrdagi mamlakatning iqtisodiyotini juda tez rivojlanishi va uning ma'muriy qayta tuzilishdagi o'zgarishlar moliyani rolini yanada oshirishni talab etar edi. Imperator Nikolay 2 xukmronlik qilgan davrda Moliya vazirligi faoliyatida, jumladan, Bosh g'aznachilik departamentida juda ko'p tarkibiy va sifat o'zgarishlari qilindi. 1890 yilga kelib g'aznachilikning tarkibini o'zgarishi bilan shtatlar soni etarli miqdorda oshdi, bu faqatgina kirim chiqim moddalarining umumiy sonini oshishi bilan emas, balki g'aznachilikning buxgalteriya kitobining alohida hisob-kitob hisobraqamlarning sonini oshishi bilan bog'liq edi.

Rossiya 90-yillarning boshidan yakka tizimli moliya boshqaruvidan voz kechdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliyaviy manfaatni himoya qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Shunday qilib Federal byudjet ijrosini amalaga oshira oladigan tezlikda yangi moliya organini tuzish masalasini hal etish kerak edi.

Rossiyada 1992 yili Federal miqyosida xududiy g'aznachilik tizimi vujudga keldi. Federal g'aznachilik organi Rossiya Moliya vazirligi tarkibiga kiradi, markazlashagan tizim hisoblanadi va hududiy tamoyillarga asoslanadi.

Unga huquqiy asos bo'lib Rossiya davlati Prezidentining farmoni, g'aznachilik to'g'risidagi nizom xizmat qiladi.

Qonun qabul qilingandan keyin - g'aznachilik instituti milliy iqtisodiyotda 2005 moliya yilidan boshlab keng miqyosda joriy etila boshlandi. G'aznachilik institutining ustuvor jihati shunda namoyon bo'lyaptiki, har byudjet yilida davlat byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 foiz atrofida kamomad bilan tasdiqlanayotgyn bo'lsada, ammo oqilona va odilona olib borilayotgan moliyaviy siyosat natijasida qator yillardan buen byudjet yili profitsit bilan yakun topmoqda.

Bunga amin bo'lish uchun quyidagi statistik ma'lumotlarga murojaat qilamiz (1-diagrammaga k,arang). Diagramma ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, byudjet kamomadi 2005 moliya yilida mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2006 moliya yilida ushbu ko'rsatkich 0,4 foizni tashkil etdi. 2007 moliya yilida esa 0,9 foizni tashkil etgan bir sharoitda 2008 moliya yilida 1,5 foizga etdi. Keyingi moliya yillarida sur'at bir oz pasaygan bo'lsada, ammo ijobiy ko'rsatkich saqlanib qolganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

G'aznachilik tizimi huquqiy jixatdan shakllantirilgan kunga kadar davlat byudjeti mablag'larin maqsadli foydalanish bo'yicha xududlarning moliya organlari va banklar ma'sul edilar. Hozirda ushbu vazifa – G'aznachilik tizimi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. G'aznachilik tizimi faoliyati deganda, davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob varag'iga (schyotiga) kiritish va ushbu xisobvaraq (schyoti) orqali byudjet xarajatlarini amalga oshirish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, endilikda davlat byudjetining g'azna ijrosi yagona organ bo'lgan g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladigan buldi, ya'ni davlat byudjetining barcha daromadlari g'aznachilik tizimi orqali yagona hisob varaqqa kiritiladi va ushbu hisob varaq orqali xarajat qilinadi. Bu, uz navbatida, davlat byudjeti daromadlarining xarajatlari ustidan nazoratning keskin kuchaytirilishiga olib keladi.

Xududlarda tuman (shahar) g'aznachilik bulinmalari, Qorakalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda g'aznachilik boshqarmalari tuzildi. Respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachilik tizimi G'aznachilik bulinmalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari xizmat kursatadigan tizim sifatida yuzaga keldi.

Me'yoriy xujjatlarda G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagicha qilib belgilangan: davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish, davlat byudjeti mablag'larinng tushumi va maqsad sarflanishini nazorat qilish, davlat byudjeti mablag'larini boshqarish, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshiririga asosan, to'lovlarni amalga oshirish, byudjet tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni ro'yxatga olib, ularning bajarilishini nazorat qilish, davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida axborotlarni umumlashtirishdan iborat.

Respublikamizda G'aznachilik tizimini joriy qilishdan oldin ushbu soxadagi jahon amaliyoti urganildi. Ushbu jarayonning huquqiy asoslari yaratildi. Ma'lumki, jahon amaliyotida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish va uning nazorati quyidagi shakllardan birida, ya'ni bank tizimi orqali, g'aznachilik tizimi orqali, aralash tizim (moliya va bank tizimlari) orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, misol uchun, Fransiyada davlat byudjeti daromadlarini mustaqil faoliyat yuritayotgan g'aznachilik Vazirligi boshqaradi, Buyuk Britaniyada G'aznachilik Departamenti Soliq, politsiyasining ayrim vakolatlarini o'z zimmasiga olgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga yaqin bulgan Malayziya, Singapur, Indoneziya kabi mamlakatlarda byudjet mablag'lari ijrosining G'aznachilik shakli keng urin olgan. Shunday qilib, mamlakatimizda davlat byudjeti ijrosining bank tizimidan uzimizga mos keladigan g'aznachilik tizimini joriy etishga kirishildi.

G'aznachilikning tashkil etilishi munosabati bilan ma'muriy- boshqaruv xodimlarining ushbu sohadagi xarajatlari ko'payishi ko'zga tashlanadi. Vaxolanki,

mamlakatimizda boshqaruv xarajatlarini 20-22 foizga kamaytirish dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan.

Aytish joizki, g'aznachilik faoliyatiga oid xukumat qarorlarida ushbu tizimning joriy etilishini muayyan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash xususiyatiga qarab, byudjet tashkilotlarining moliya - iqtisod xizmatlari xodimlarini maqbullashtirish va 25 foizgacha qisqartirish evaziga amalga oshirish ko'zda tutilgan. Davlat byudjetining g'azna ijrosi ilgari faoliyat ko'rsatib kelgan moliya organlari tarkibiy tuzilmasi va xodimlar sonini (shtatini) qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma - bosqich o'tilmokda, oldindan uning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan: 2004 yil 26 avgustida O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni kabul kilindi (2006 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritilishi ko'zda tutilgan edi). Mazkur qonun 18 ta moddadan iborat bo'lib, g'aznachilik tushunchasi, davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplarini (tamoyillarini), g'aznachilikning asosiy vazifalari, davlat byudjeti xarajatlarini amalga oshirish tartibi, g'aznachilik soxasida hisob - kitob ishlarini yuritish, buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish masalalarini uz ichiga oladi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi «Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 20 martdagi 53 - sonli qarori bilan tasdiklangan «O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining g'aznachilik to'g'risida Nizomi» qabul kilindi. G'aznachilik tizimini joriy etishda bu soxada buxgalteriya hisobini yuritish masalalari aloxida urin tutadi. Bugungi kunda g'aznachilik faoliyati bilan bog'lik, bulgan buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy xujjatlar ham qabul qilingan. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Byudjet mablag'larini tasarruf qiluvchilarning (oluvchilarning) shaxsiy schyotlarini ochish va berkitish bo'yicha vaqtinchalik qoidalar» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 24 iyulda 1600 - sonli raqam bilan ro'yxatga olingan), «O'zbekiston

Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona schyotlar rejasi» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 3 mayda 1570 - sonli raqam bilan ro'yxatga olingan), «Samarqand viloyati maxalliy byudjeti g'azna ijrosining hisobi bo'yicha vaqtinchalik qoidalar» (Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 24 iyulda 1599 - sonli raqam bilan ro'yxatga olingan)larni kiritish mumkin. Xuquqiy - me'yoriy xujjatlar g'aznachilik faoliyatining keskin rivojlanib borishi tufayli yanada kengaytiriladi va albatta takomillashtirilishi ta'minlanadi.

G'aznachilik tizimining joriy etilishi tufayli, byudjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan barcha umumta'lim maktablariga aloxida buxgalterlar tayinlanadigan buldi. Mamlakatimizda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan un mingga yaqin umumta'lim maktablari mavjud. Nisbatan o'quvchilar soni ko'p bulgan maktablarga bittadan buxgalter tayinlanganida ham, o'rtacha 7- 8 mingga buxgalter kerak buladi. Avvalgi xalq maorifi bo'linmalaridagi kup sonli markazlashtirilgan buxgalteriyalar, endilikda ixchamlashtirildi. Byudjet sohasidagi bunday tarkibiy o'zgarishlar bizning oldimizga ham yangicha vazifalar qo'ymoqda. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimiga utish munosabati bilan byudjet tashkilotlarining barcha moliya - hisob xodimlari o'z malakalarini oshirishlari yoki bulmasa, qayta tayyorlashdan o'tishlari zarur bo'ldi.

2.2. G'aznachilik tizimi va uning o'ziga hos jihatlari mavzusini o'qitishda audiovisual va audiovertual metodni qo'llash va uning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda G'aznachilikning asosiy maqsadlari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining G'aznachilik ijrosi to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan. Ushbu Qonun bilan Davlat byudjetining G'aznachilik ijrosining asosiy prinsiplari ham belgilangan: kassaning yagonaligi va buxgalteriya hisob-kitobi va hisobotini tashkillashtirishning yagonaligi (Qonun 2006 yil 1 yanvardan kuchga kirgan).

To'la miqyosdagi g'aznachilik (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning xududiy bo'linmalari) 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594 son "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik Moliya vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi, u esa, uz navbatida, bevosita O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasiga buysinadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. G'aznachilik tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligi va unga buysinadigan viloyat bo'yicha (QR, Toshkent sh.) boshqarmalar va tumanlar (shaharlar) bo'yicha bo'linmalar kiradi.

Byudjet jarayonida bevosita qatnashayotgan boshqa muassasalar bo'lib Soliq va Bojxona qo'mitalari, Markaziy bank va byudjet hisob raqamlarga xizmat ko'rsatayotgan qator tijorat banklari va hisob palatasi hisoblanadi.

O'zbekistonda G'aznachilikka quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeta ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

Davlat byudjeta mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan xududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeta mablag'lari hisobidan kapital kurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida kursatilgan summalar va maqsadlarga qattiq muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yunaltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirigi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga suzsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash; Davlat byudjeti gazna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi karzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

Aytish joizki, O'zbekistonda Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi tizimining quyidagi asosiy xususiyatlari e'tiborga moliqdir:

- ma'lumotlarning yagona axborot tizimining yaratilishi - bu sharoitda xar bir byudjet mablag'larini oluvchi bo'yicha xar bir g'aznachilik jarayonini vaqtning real rejimida markaziy ofisda kuzatib borish mumkinligi;

- byudjet jarayonining g'aznachilik ijrosi bilan to'la xajmda qamrab olinishi - g'aznachilik ijrosi xarajatlar smetasini ro'yxatga olishdan boshlanadi, yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olishni, moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi hamda kassa xarajatlarini nazorat qilishni ham kamray olishi;

- Davlat byudjetining pul mablag'lari yagona bank hisob raqamida jamlanadi - bu yo'l bilan ularning eng yuqori darajada samarali ishlatilishi va markazlashtirilgan nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yaratib berilishi.

Davlat moliyasi statistikasi qo'llanmasi hamda buxgalteriya hisob-kitobining xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisob-kitobining schetlar ro'yxati tuzilishi - moliya organlarida va byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisob-kitobini unifikatsiyalashtirishga hamda zamonaviy talablarga javob beradigan hisobotning yagona tizimini yaratishga imkoniyat berdi.

“Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorga asosan Prezidentimizning 12.12.2007 yil PK-744-son Qaroriga muvofiq uzgartirishlar kiritilishi g'azna ijrosini rivojlantirish imkoniyatini yaratib berdi. Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbik etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbik etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda maxalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligini va uning xududiy bo'linmalarini moliya organlari bo'yicha belgilangan boshqaruv xodimlari soni doirasida tashkil etish tug'risidagi taklifi qabul kilili uchun zamin yaratildi.

G'aznachilik zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilishi e'tirof etildi, ya'ni: Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taksimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzishi uchun; Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan xududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarishi uchun; byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital kurilish bo'yicha buyurtmachilarning

shartnomalari xarajatlar smetasida kursatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish; byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yunaltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish; davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va muttasil yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narx belgilash jarayonini nazorat qilish; kichik biznes sub'ektlari keng ishtirok etishini nazarda tutadigan davlat xaridlarini amalga oshirishda tanlov va tender tartibotlarini takomillashtirish va qo'llashni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qattiy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga suzsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash; Davlat byudjeti gazna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi hakida axborot yigish, qayta ishlash va taxlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashki karzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish muhim vazifa deb topildi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga, zarur xollarda, g'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga g'aznachilik xodimlarining cheklangan umumiy soni va moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish xuquqi berildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarga e'tibor qaratish qam muhimdir:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik boshligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan xolda Vazirlar Maxkamasi

tomonidan, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining taqdimnomasiga asosan lavozimga tayinlanishi va ozod etilishiga;

- G'aznachilik boshlshi lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining urinbosari etib tayinlanishiga;

- G'aznachilik xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mexnat xaqi shartlari tatbik etilishiga.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi quyidagilarga uz e'tiborini karatishi muximdir:

- o'n kun muddatda - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligi to'g'risidagi nizomni tasdiklash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga kiritishi;

- ikki xafta muddatda - moliya organlari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bulinmalari xodimlarini Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimi faoliyat yuritishi sharoitlarida ishlashga tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazini tashkil etish to'g'risida Vazirlar Maxkamasining qarori loyixasini kiritishi;

- ikki xafta muddatda - g'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarini zarur binolar, kompyuterlar, tashkiliy texnika va boshqa anjomlar bilan ta'minlash, shuningdek, ularni yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini ishlab chikishi;

- ikki oy muddatda - Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimining joriy etilishi munosabati bilan muayyan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash xususiyatiga karab byudjet tashkilotlarining moliya-iqtisod xizmatlari xodimlari sonini maqbullashtirish va 25 foizgacha qisqartirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasiga takliflar kiritishi;

- Osiyo tarakkiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining karz mablag'larini jalb etgan xolda Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob raqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi Davlat byudjeti gazna ijrosining yagona

integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini qabul qilishi kerak.

Byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning davlat byudjeti mablag'lari hisobiga kapital kurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda g'aznachilikda ro'yxatga olinishi shart va fakat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kiradi; byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga kura, 15 foiz miqdorida oldindan xaq tulash nazarda tutiladi, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno;

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini kamrab olgan xolda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmogini tashkil etish uchun er usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari ta'minlashi zarur buladi.

Byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini bajarish funksiyalari g'aznachilikka berilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga byudjet mablag'lari oluvchilarga xizmat ko'rsatish bilan band bulgan bank xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish choralari qurishni tavsiya etish zarur.

Yuqorida qayd etilayotganidek, byudjet ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishdan katta-katta iqtisodiy samaralar olinishi mumkin. Ammo,

Prezidentimiz tomonidan ishlab chikilib mamlakatimiz oldiga quyilayotgan vazifalarni kiska muddatlarda va o'z vaqtida bajarish uchun biz tomonimizdan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Shu jumladan g'aznachilik tizimida ham xususan:

- byudjet mablag'aridan foydalanayotgan iste'molchilar tomonidan G'aznachilik institutiga taqdim etilayotgan rasmiy xujjatlar va ortiqcha qog'ozlar xajmini keskin kamaytirish maqsadga muvofiq;

- G'aznachilik tizimining ish faoliyatini samarali tashkil etish o'z navbatida

uning mijozlar ish faoliyatini yaxshilashga olib kelishini e'tirof etib, respublika miqyosida elektron hisob-kitoblarni amalga oshirishni jadallashtirish lozim;

- respublika g'aznachilik tizimida faol ishtirok etayotgan shahar va viloyat g'aznachilik bo'limlari, shuningdek, intizomli hamda me'yoriy xujjatlarga tulik amal qilayotgan iste'molchilarni ommaviy axborot vositalari orqali rag'batlantirib turish maqsadga muvofiq;

- nisbatan yangi institut bulgan g'aznachilik tizmmi uchun etuk va malakali kadrlarni tayyorlash va ularga kamida xar uch yilda bir marotaba malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish. Shuningdek, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan bulib g'aznachilik soxasida ilmiy ish olib borayotgan va shu soxada qator yillardan buyon faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni g'aznachilik institutidan asrlar davomida foydalanib kelayotgan chet davlatlariga amaliy tajriba almashishga yuborish lozim. Yukorida qayd etib o'tilgan xolatlar kiska muddatlarda bartaraf etish mumkin bulgan muammolar hisoblanadi. Agar ularga e'tibor beriladigan bulsa byudjet ijrosini yanada samarali tashkil etishga qulay imkoniyat yaratiladi.

Audiovizual va audiovertual usullar asosida talabalarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy audiovizual va audiovertual usullardan talabalarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda etuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

Ko'pgina tadqiqotlar audiovizual va audiovertual usullardan foydalangan holda o'qitish tizimining muvaffaqiyatlarini e'tirof etmoqda. Eski an'anaviy ta'lim usullari bilan ob'ektiv taqqoslash juda qiyin. Aniq bir materialni o'rganish uchun vaqtni tejash an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'zlashtirilgan bilim esa xotirada ancha uzoq saqlanadi.

Masalan, eshitgan materialning faqat to'rt dan bir qismigina xotirada qoladi. Agar talaba ushbu materialni ko'rish orqali o'zlashtirish imkoniga ega bo'lsa, xotirada qolgan material hajmi o'ttiz foizga ko'payadi. Moboda, ham ko'rish, ham eshitish orqali material o'zlashtirilsa uning 50% ortig'i qolar ekan, agar talaba

o'rganish jarayonida faol harakat qilishga jalb etilsa o'zlashtirish hajmi 75% ni tashkil qiladi.

Komp'yuter yordamida bilimlarni turli ko'rinishda taqdim qilish mumkin: tasvir, skayner qilingan suratlar, chizmalar, xaritalar va slaytlar; tovush, tovush yozilgan tasmlar, tovushli effektlar va musiqa; video, hamda murakkab videoeffektlar va inson yo'zining animasion imitatsiyasi; animasiya va simulyasiyalar. Qoidaga ko'ra tarkibida chiroyli tasvirli yoki animasiyalı prezentasiya vizual tomondan oddiy tekstga nisbatan o'ziga tortadi va ma'lumotlarni taqdim qilinishini to'ldirib turadi, hamda kerakli bo'lgan emosional darajani ushlab turadi.

Video o'qish qurilmalari: fil'm kadrlari harakatini shakllantirish – harakat taassurotini uyg'otuvchi rasmlar, kadrlar ketma–ketligini, tasvirlarni tayyorlash va joylashtirish. Videotasvirlar oqimini o'qish qurilmasi – videooqim formatlari avi, mreg v.b.ni o'z ichiga olgan o'qish qo'rilmasini shakllantirish, shundan keyingina ushbu oqimni boshqarish imkoniyati tug'iladi (masalan, videofaylni ishga tushirish, pauza, video boshiga tez o'tish kabi 248 buyruqlarni ishlatish).

Tovush o'qish qurilmalari: bitta ovozli fayl o'qish qurilmasi – wab, mp3 va boshqa formatdagi ovozli faylni mul'timedia ilovaga qo'shish va uni qaytadan eshitish. Turli ovozli fayllarni o'qish qurilmasi – bitta ovozli fayl o'qish qurilmasiga o'xshash, lekin bajarish ketma–ketligini o'zgartirish imkoniyati qo'shilgan holda. Virtual musiqa instrumentlari – haqiqiy musiqa instrumentlari imitatsiyasi. Mul'timedia turli o'quv jarayonlarning kontekstlarida qo'llanishi va turli aql idrok tomonidan qabul qilinishi mumkin - ba'zi talabalar o'qish orqali ta'lim olishni istashadi, boshqalar - eshitish orqali, uchinchilar esa - video ko'rish orqali va h.k. Shuni aytish kerakki mul'timedia vositalarini qo'llanishi talabalarga o'quv materiallar bilan turli xil ishlash imkoniyatlarini beradi, talabalarning o'zlari materiallarni qanday qilib o'rganishni, ilovalarning interaktivlik imkoniyatlarni qanday qilib qo'llashni va qanday qilib kursdoshlari bilan birgalikda ishlashni tashkil qilishni hal qiladi. Bular tufayli talabalar o'quv jarayonining faol

qatnashuvchilariga aylanadilar. Talabalar shaxsiy hoxishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ta'sir ko'rsatib o'quv jarayonni o'zlariga moslashtirib olishlari mumkin. Talabalar o'zlari istagan materialni o'rganishlari va qancha kerak bo'lsa shuncha qaytarishlari mumkin, bu esa yakka tartibda o'qishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish imkonini beradi. Yakka tartibda o'qish usuli o'quv jarayonida faollikni oshiradi, bunda talabalarning o'zlari qanday savollarga javob berishni va qaysi mavzuni o'rganishni o'zlari hal qiladilar.

Videoyozuvlarni qayta ishlash. Videoyozuvlar bilan ishlash videomagnitofon yordamida yozib olingan tasvirni oldindan raqamli ko'rinishga o'tkazishni talab qiladi. Tasvirni raqamli shaklga o'tkazish deganda materialni analog shaklidan komp'yuterga kiritish mumkin bo'ladigan raqamli shaklga o'zgartirish tushuniladi. Tasvirni raqamli shaklga o'tkazish uchun komp'yuter maxsus videokarta, TV - tyuner va unga hamroh bo'lgan dasturiy mahsulot bilan jihozlanishi kerak. Raqamli shaklga o'tkazilgan videoyozuv TV - tyuner talab qilmaydi, quyidagi dasturiy mahsulotlar bo'lishi etarli: Vstudio2-videomagnitofondan videoyozuvni raqamliga o'tkazish uchun ishlatiladi; videoparchalarni turli shaklda montaj qilishga imkon beradi.

Adobe Premier – fragmentlarni raqamlashtirish va ular orasida ko'plab o'tishlar bilan montaj qiluvchi murakkabroq dasturiy mahsulot. Adobe Premier kadrlar o'lchamini va ularning orientatsiyasini o'zgartirishi mumkin. MorphMan – Stoik Software tarkibiga kiruvchi va videomaterial montaji hamda morfing yaratishga imkon beruvchi dastur. Morfing deganda bir tasvirning boshqasiga qadamba-qadam o'zgarib o'tishi tushuniladi. Ushbu dastur statik morfing bilan birga alohida videofragmentlar orasida ham morfing yarata oladi. Bunday qayta ishlovlar natijasida AVI kengaytmali videofayl yaratiladi.

Tovushni qayta ishlash. Fonograf – Windows 95ning (CD-disklar, mikrofon va chiziqli) ovoz yozishga va uni tahrirlash (ovozni ko'tarish/pasaytirish, tezlikni ko'tarish/pasaytirish, exo effekti yaratish)ga imkon beradigan standart dasturi.

Matnni qayta ishlash. Matn bilan ishlashda uning qaysidir qismini bevosita klaviatura yordamida komp'yuterga kiritish mumkin, katta hajmdagi o'zgarmaydigan matnlarni keyinchalik maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida qayta ishlashni ko'zda tutib skaner yordamida kiritish qulay. Videomateriallarning mavjudligi har qanday axborotni o'zlashtirishni yaxshilaydi, grafikaning yuqori sifatliyligi esa rasm va slaydlarni zavqlanib ko'rish imkoniyatini beradi, sifatning past bo'lishi noqulaylik tug'diradi va materialning o'zlashtirilishiga xalaqit beradi. Bunday sifat loyihaga jalb etilgan matnlarga ham taalluqli.

Hech qanday orfografik yoki stilistik xatolarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axborotlarning tezkorligi, to'liqligi va haqqoniyligi ham muhimdir. Loyiha ustida ish boshlaganda ma'lumotlarni taqdim etish modelini tanlash lozim va u quyidagi talablarga javob berishi kerak: axborotlar taqdim etilishining ko'rgazmaliligi; axborotlar kiritishning soddaligi; axborotlarni qidirish, ko'rish va tanlash qulayligi; boshqa dasturiy mahsulotlardan axborotlarni ishlatish imkoniyati; loyihani qayta tuzatish imkoniyati (yangi ma'lumot qo'shish yoki o'chirish); interfaol rejimni ta'minlab beruvchi yaxshi interfeys. Xulosada shuni ta'kidlash kerakki, og'zaki bayon, yozma matn, rasm, grafik, formula, jadval, mul'timedia, videomateriallar kabi didaktik materiallar asosan nazariy bilimlarni hosil qilish uchun qo'llaniladi. Virtual trenajyor, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, malakaviy amaliyot, kurs ishi va loyihasi, malakaviy bitiruv ishi va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonlarida esa asosan amaliy ko'nikmalar hosil bo'ladi va ular mustahkamlanadi. Ekspert sifatida baholash qobiliyati asosan o'quv davridan keyingi kasbiy va ilmiy, ijodiy faoliyatlarda shakllanib boradi.

III - BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI MAVZUSINI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

3.1.G‘aznachilik tizimini takomillashtirish yo‘llari

G‘aznachilikni tashkil etish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002 yil 26 apreldagi 144-son qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004 yil 26 avgustda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi G‘aznachilikning tashkil etilishida va Davlat byudjetining g‘azna ijrosi joriy etilishida muhim bosqichlardan biri bo‘ldi.

Qonun 2006 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Davlat byudjeti g‘azna ijrosining ayrim elementlarini tajriba shaklida joriy etish 2005 yil 1 iyundan boshlab Toshkent shahrida va Samarqand viloyatida boshlandi. Byudjetning g‘azna ijrosi elementlarini bosqichma-bosqich kengaytirish 6 mintaqada (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari) 2006 yilda, qolgan mintaqalarda (Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida) 2007 yildan amalga oshirildi. Ixtisoslashtirilgan moliya organi - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qarori asosida respublikaning barcha mintaqalarida 2007 yildan boshlab tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining maqsad va vazifalari quyidagi bir qancha muhim qonun hujjatlari bilan belgilangan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qarori; “Davlat

byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2007 yil 20 martdagi 53-son qarori.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qaroriga muvofiq quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining asosiy maqsadlari etib belgilangan:

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘lari maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- barcha darajalardagi daromadlar va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qonun hujjatlari bilan G‘aznachilikka quyidagi asosiy vazifalar yuklangan:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish;
- Davlat byudjeti mablag‘larini yagona g‘aznachilik hisobvarag‘i, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta‘minlaydigan hududiy g‘aznachilik hisobvaraqlarini joriy etish orqali boshqarish;
- byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish bo‘yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan summalar va maqsadlarga qat‘iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobvaraqlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va muttasil yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narx belgilash jarayonini nazorat qilish;

- kichik biznes sub'ektlari keng ishtirok etishini nazarda tutadigan davlat xaridlarini amalga oshirishda tanlov va tender tartibotlarini takomillashtirish va qo'llashni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi, shu jumladan nomoddiy shakldagi muruvvat yordami va texnikaviy ko'maklashish vositalarining to'liq hamda tizimli hisob-kitobini yuritish;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

- G'aznachilik davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi funksiyasini amalga oshiradi.

G'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Davlat byudjetining g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati tuzilmasiga bunday yirik boshqarmalardan biri Amaliyot boshqarmasi, Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi va Davlat byudjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi singari boshqarmalar kiradi. O'z navbatida ushbu boshqarmalar tarkibiga bir qancha bo'limlar kiradi. O'z navbatida ushbu boshqarmalar tarkibiga bir qancha bo'limlar kiradi.

a) Amaliyot boshqarmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish va narxnavalarni monitoring olib borish bo'limi;
- moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi;
- mudofaa idoralari tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish va to'lovlarini amalga oshirish bo'limi; huquq-tartibot tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish va to'lovlarini amalga oshirish bo'limi;
- Davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish bo'limi;
- Hisob-kassa amaliyotlar bo'limi; O'zbekiston Respublikasiga kirib keladigan barcha turdagi gumanitar yordam va texnik ko'mak vositalarning hisobi bo'limi.

b) Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi tarkibida quyidagilar mavjud:

- byudjetning g'azna ijrosi metodologiyasi bo'limi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish bo'limi;
- ichki va tashqi qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar bo'limi;
- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi.

v) Davlat byudjetining g'azna ijrosini jamlanma tahlil qilish va nazorat qilish boshqarmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjetining g'azna ijrosini jamlanma tahlil qilish bo'limi;
- G'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish bo'limi;
- Buxgalteriya hisobi va hisobotlari bo'limi.

G'aznachilik va uning bo'linmalarining tuzilmasi G'aznachilik rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

G'aznachilik rahbariyati o'z xodimlari uchun ochiq eshiklar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Bu har qanday xodim uchun uning bevosita rahbari o'ziga bo'ysunuvchini eshitishga va tegishli tarzda munosabat bildirishga majbur ekanligini anglatadi.

Agar bevosita boshliq o'ziga bo'ysunadiganni tinglashni xohlamasa yoki tinglay olmasa, boshliqqa bo'ysunuvchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Kadrlar boshqarmasiga murojaat qilishi mumkin.

Jamoda ishlash va barcha xodimlarning sa'y-harakatlari muvaffaqiyatga erishish sharti hisoblanadi. G'aznachilik xayrixohli o'zaro munosabatlarni ma'qullaydi va jamoda qulay ijtimoiy-siyosiy muhit saqlab qolinishiga ko'maklashadi. Xodimlar o'rtasidagi barcha kelishmovchiliklar ularning bevosita rahbari tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Kadrlar boshqarmasining mutaxassislari bilan hamkorlikda hal etiladi.

Qandaydir bo'lmasin nizo uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. G'aznachilik xodimlari bir-birlari bilan tovush ohangini balandlatmasdan va bir-birining so'zini bo'lmasdan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ladilar. G'aznachilik rahbariyati g'oyalar, mulohazalar va har qanday takliflar va muammolar bilan murojaat qilgan xodimlarni rag'batlantiradi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarorga asosan Prezidentimizning 12.12.2007 yil PK-744-

son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilishi gazna ijrosini rivojlantirish imkoniyatini yaratib berdi.

Davlat byudjetining G'azna ijrosini tatbik etish hisobiga byudjet tizimini yanada islox qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbik etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda maxalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligini va uning xududiy bo'linmalarini moliya organlari bo'yicha belgilangan boshqaruv xodimlari soni doirasida tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilishi uchun zamin yaratildi.

G'aznachilik zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilishi e'tirof etildi, ya'ni:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taksimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzishi uchun;

- Davlat byudjeti mablag'larini yagona G'aznachilik hisob raqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan xududiy G'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarishi uchun;

- byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital kurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qattiq muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz

xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va muttasil yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narx belgilash jarayonini nazorat qilish;

- kichik biznes sub'ektlari keng ishtirok etishini nazarda tutadigan davlat xaridlarini amalga oshirishda tanlov va tender tartibotlarini takomillashtirish va ko'llashni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chikish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qattiy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirigi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti gazna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi xaqida axborot yigish, kayta ishlash va taxlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashki karzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish muxim vazifa deb topildi.

Xozirda O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga, zarur xollarda, gaznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga gaznachilik xodimlarining cheklangan umumiy soni va moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berildi. Yukoridagilardan kelib chiqib quyidagilarga e'tibor karatish ham muximdir:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik boshligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan xolda Vazirlar Maxkamasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining taqdimnomasiga asosan lavozimga tayinlanishi va ozod etilishiga;

- G'aznachilik boshlshi lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari etib tayinlanishiga;

- G'aznachilik xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mexnat xaqi shartlari tatbik etilishiga.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi quyidagilarga o'z e'tiborini karatishi muximdir:

- o'n kun muddatda - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi nizomni tasdiklash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga kiritishi;

- ikki xafta muddatda - moliya organlari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini Davlat byudjetining G'azna ijrosi tizimi faoliyat yuritishi sharoitlarida ishlashga tayyorlash va kayta tayyorlash O'quv markazini tashkil etish to'g'risida Vazirlar Maxkamasining qarori loyixasini kiritishi;

- ikki xafta muddatda - G'aznachilik va uning xududiy bo'linmalarini zarur binolar, kompyuterlar, tashkiliy texnika va boshqa anjomlar bilan ta'minlash, shuningdek, ularni yukori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini ishlab chikishi;

- ikki oy muddatda - Davlat byudjeti G'azna ijrosi tizimining joriy etilishi munosabati bilan muayyan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash xususiyatiga karab byudjet tashkilotlarining moliya-iktisod xizmatlari xodimlari sonini maqbullashtirish va 25 foizgacha qisqartirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasiga takliflar kiritishi;

- Osiyo tarakkiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining karz mablaglarini jalb etgan xolda Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona gazna hisob raqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish

imkonini beruvchi Davlat byudjeti gazna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini qabul qilishi kerak.

Byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablaglari hisobiga kapital kurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda g'aznachilikda ro'yxatga olinishi shart va fakat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kiradi;

- byudjetdan mablag oluvchilarning byudjet mablaglari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga ko'ra, 15 foiz miqdorida oldindan xaq to'lash nazarda tutiladi, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno;

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini kamrab olgan xolda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmogini tashkil etish uchun er usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari ta'minlashi zarur bo'ladi.

Byudjet mablaglari oluvchilarning xarajatlar smetasini bajarish funksiyalari gaznachilikka berilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga byudjet mablag'lari oluvchilarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan bank xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish choralari ko'rishni tavsiya etish zarur. Yukorida qayd etilayotganidek, byudjet ijrosiga gaznachilik tizimini joriy etishdan katta-katta- iqtisodiy samaralar olinishi mumkin. Ammo, Prezidentimiz tomonidan ishlab chikilib mamlakatimiz oldiga ko'yilayotgan vazifalarni kiska muddatlarda va o'z vaqtida bajarish uchun biz tomonimizdan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. SHu jumladan G'aznachilik tizimida ham. Xususan:

- byudjet mablag'aridan foydalanayotgan iste'molchilar tomonidan G'aznachilik institutiga taqdim etilayotgan rasmiy xujjatlar va ortiqcha qog'ozlar xajmini keskin kamaytirish maqsadga muvofiq;

- G'aznachilik tizimining ish faoliyatini samarali tashkil etish o'z navbatida

uning mijozlar ish faoliyatini yaxshilashga olib kelishini e'tirof etib, respublika miqyosida elektron hisob-kitoblarni amalga oshirishni jadallashtirish lozim;

- respublika g'aznachilik tizimida faol ishtirok etayotgan shahar va viloyat G'aznachilik bo'limlari, shuningdek, intizomli hamda me'yoriy xujjatlarga to'liq amal qilayotgan iste'molchilarni ommaviy axborot vositalari orqali rag'batlantirib turish maqsadga muvofiq;

- nisbatan yangi institut bo'lgan g'aznachilik tizimmi uchun etuk va malakali kadrlarni tayyorlash va ularga kamida xar uch yilda bir marotaba malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish. Shuningdek, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lib g'aznachilik sohasida ilmiy ish olib borayotgan va shu soxada qator yillardan buyon faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni g'aznachilik institutidan asrlar davomida foydalanib kelayotgan chet davlatlariga amaliy tajriba almashishga yuborish lozim. Yukorida qayd etib o'tilgan xolatlar kiska muddatlarda bartaraf etish mumkin bo'lgan muammolar hisoblanadi. Agar ularga e'tibor beriladigan bo'lsa byudjet ijrosini yanada samarali tashkil etishga qulay imkoniyat yaratiladi.

3.2.G'aznachilik tizimi va uning o'ziga hos jihatlari mavzusini o'qitishda audiovisual va audiovertual usullarini qo'llab o'qitishning samaradorligini oshirish yo'lari

Zamonaviy axborot shakllarining eng keng tarqalgani bu videomateriallardir. Hozirgi kunda videomaterialni ortiqcha sarf-xarajatlarsiz tezda tayyorlash imkoniyati mavjud. Biroq, ishlangan videomaterial talabga javob berishi uchun eng avvalo uning ssenariysi pishiq bo'lishi zarur. Buning ustiga hozirgi davrga kelib yoshlarning hatti-harakatlari oldingi avlodnikidan boshqacharoq, videomateriallarning ko'pchiligi eski avlod vakillariga ma'qul bo'lmaydigan holatlar ham ko'plab uchrab turadi.

Shularni nazarda tutgan holda biz eng avvalo mavzumizni o'rganishda audiovizual va audiovertual usullarini qo'llash bo'yicha talabalar uchun tavsiya

qilinadigan videorolikda to'xtadik. Uning pedagogik ssenariysini tahlili o'tkazildi. Videorolik pedagogik ssenariysining tahlili. Bugungi kunda jamiyat rivojlangan sari iqtisodiyot, fan, texnologiya, madaniyat, san'at va tibbiyot kabi javhalarda erishilgan yutuqlari va yangiliklar haqidagi turli ma'lumotlar asosida yaratilgan zamonaviy axborot shakllaridan foydalanishni tashkil etish ehtiyoji hozirgi kunga kelib eng dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham inson qayerda va qanday vaziyatda bo'lmasin zamon talabiga mos ravishda malakasini oshirib va yangi ma'lumotlar bilan bilim bazasini oshirib borishi kerakligini bugungi kunda taqazo etmoqda.


Bunday vaziyatda hozirgi kunga kelib borgan sayin o'z samarasini namoyish qilayotgan va rivojlanib borayotgan zamonaviy axborot shakllarining ta'lim tizimida o'z samarasini va har tomonlama qulay ekanligini isbotlamoqda. Shuning uchun ham Oliy va o'rta ta'lim maskanlarida zamonaviy axborot shakllari ichidagi eng ko'p tarqalganlaridan biri bo'lib hisoblanadigan videoroliklardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda.

Shu tufayli ham ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy bilim va malakasini oshirish maqsadida ishlab chiqilayotgan videoroliklarning soni ko'payib bormoqda. Bu holat o'z navbatida o'quv jarayonni zamonaviylashtirish va samarasini oshirishga katta xissa qo'shmoqda. Lekin, ushbu maqsadlarda suratga olinayotgan videoroliklarning ko'pchiligi ta'lim tizimi talablariga javob beradi deyish qiyin va o'quv maqsadlarida foydalanish uchun ularni montaj qilish zarur. Shuning uchun ham bunday roliklarni o'quv maqsadlarida namoyish qilishdan oldin ularni pedagogik jihatdan tahlil qilish ya'ni videorolikning pedagogik ssenariysining tahlilini o'tkazish kerak.

Videorolikni tomosha qilish jarayonida unda g'aznachilik tizimi va uning o'ziga xos jihatlari aks ettirilganligini, tomoshabinning diqqatini jalb qilish maqsadida ssenariy ustida katta mehnat qilinganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Videorolikning pedagogik ssenariysini tahlil qilish maqsadida guruh talabalari o'rtasida anketa savolnomasi tarqatildi (1-ilova). Videorolikni tomosha qilish

jarayoni va anketa so'rovlarini o'tkazish vaqtida jami 12 ta talabalar ishtirok etishdi. Talabalar o'rtasida tarqatilgan anketa savollari oson savollardan qiyin savollarga tomon yo'naltirilgan. Buning asosiy sababli, bu yo'l orqali biz talabalarni muayyan taektoriya asosida javob berishiga erishdik. SHu sababli anketada keltirilgan har bir savol o'zining muayyan darajadagi psixologik ta'sirga ega.


Masalan, 1, 2, 3 raqamli savollar talabalarni anketa savollari jarayoniga ko'niktirish, moslashtirish, uni emotsional holatga solmaslik maqsadida keltirilgan, 4, 5, 9, 12, 13, 19, 20, 21, 22 raqamli savollar esa talabani e'tiborini tortish, uni emotsional holatga keltirish, qiziqishini orttirish, uni faollashtirish maqsadida foydalanildi. 6, 7, 8, 10, 11, 14, 15, 16, 17, 18 raqamli savollar esa talabani e'tiborini tortmasdan uni sezdirmasdan o'lchanishi lozim bo'lgan parametrlarni aniqlash maqsadida qo'llanildi. YUqoridagi holatni quyidagi diagramma yordamida ko'rish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Anketa savollarining murakkablik darajasi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki anketa savollarini tuzish vaqtida talabalarning aqliy faoliyatiga turtki berish (1-daraja), faollashtirish (2-daraja) va yuqori cho'qqiga chiqarish maqsadida (3-daraja) ushbu ketma- ketlikka anketa savollari asoslangan. Anketa savollarning shunday joylashtirilgani tufayli talabalarda aqliy faoliyatning zo'riqishi oldi olinadi.

O'tkazilgan tadqiqot jarayoni vaqtida anketa tarqatish yordamida olingan natijalarni baholash va o'zaro taqqoslash maqsadida tadqiqot guruhi talabalari o'rtasida suhbat o'tkazildi. Suhbat jarayonida savollar ketma-ketligi berildi (2-ilova). Suhbat jarayonida talabalarga berilgan savollarini (1÷20) tuzishda guruh talabalari o'rtasida ishonch, o'tkazilayotgan suhbatga qiziqish uyg'otish maqsadida, talabalarni ortiqcha e'tiborini tortmasdan aniqlanishi kerak bo'lgan parametrlarni aniqlash va talabalarning faolligini so'ngdirmaslik uchun yuqorida keltirib o'tilgan qaytariluvchan oson (1) va qiyin (2) savollar ketma-ketligidan foydalanildi. (2-rasm)



2-rasm. So'rov savollarining murakkablik darajasi.

O'tkazilgan pedagogik eksperimentlarda g'aznachilik tizimi va uning o'ziga xos jihatlariga oid videorolikning pedagogik ssenariysini tahlil qilish maqsadida kafedrada guruh talabalari o'rtasida ushbu videorolik namoyish qilindi va videorolik mazmunidan kelib chiqib tuzilgan anketa savollari tarqatish va suhbat o'tkazish natijasida quyidagi xulosaga kelindi. Videorolikni tomosha qilish jarayonida unda asosan g'aznachilik tizimi va uning o'ziga xos jihatlar asosiy o'rin egallaganligini ta'kidlab o'tish joiz. Videorolikning har bir bosqichi imkon boricha turli tasviriy lavhalar bilan ta'minlangan va har bir lavhaga ma'lum vaqt ajratilgan. Videorolikda tasvirlangan texnologik

jarayonlarni tomosha qilgan talabalar bizning fikrimizcha ma'lum ta'lim natijalariga erishadi.

Turli lavhalar yordamida ushbu videorolikga tomoshabinning qiziqishini uyg'otish, e'tiborni jamlash va eng asosiysi talabalarda motivatsiyani hosil qilish maqsadida qiyidagilardan foydalanilgan: tarixiy ma'lumotlar; rang va yorug'lik effektlari; kadr ortidagi musiqa va ovoz effektlari; siklik animatsiyalar; interv'yular.


Hozirgi kunda mutaxassislarning fikricha inson har qanday ma'lumotlarni ko'rish, eshitish, sezish a'zolari orqali yaxshiroq qabul qiladi. Ular orqali talaba dars jarayonida namoyish qilinayotgan videoroliklarda jarayonni tushuntirib o'tadigan diktorlarning roli juda katta hisoblanadi. Diktorlar jarayonning borish tezligiga mos holda bayon qilishi tufayli talabalarda jarayon to'g'risida to'liq tushuncha hosil bo'lishga imkon beradi.

Bunda diktorning nutqining ravonligi va gapirish tezligi katta o'rin tutadi. Mazkur videorolikdagi diktorning nutqi biroz tezroq, ya'ni 140 so'z minutni tashkil etadi. Bu tezlik talabalarda gapirib o'tilayotgan barcha ma'lumotlarni to'liq qabul qilish va hotirada saqlash imkonini bermaydi. Videorolikning umumiy davomiyligi 481 sekund bo'lsa ham, videorolikning atigi 342 sekundi texnologiya uchun ajratilgan. Shuning uchun ham bu videorolikni ta'lim jarayonida qo'llash uchun uni montaj qilish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, videorolik ishlab chiqishda har bir bosqich uchun muayyan ta'lim natijalarini tuzish, kadr ortidagi nutq tezligini tabiiyga yaqinlashtirish, har bir jarayonni tasviriy lavhalar, jonli interv'yular, fotosuratlar bilan boyitish zarur. Ushbu talablarga mos qilib ishlab chiqilgan videorolik namoyishidan so'ng ta'lim natijalariga mos tarzda nazorat o'tkazib talabalarining o'zlashtirishini tekshirish mumkin bo'ladi.

G'aznachilik tizimi va uning o'ziga xos jihatlari uchun ishlab chiqilgan virtual animatsiya ssenariysining pedagogik tahlili. Zamonaviy o'qitish usullarining Respublikamiz ta'lim tizimiga kirib kelishi muhandis-pedagoglar

oldiga qator ma'suliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, ta'lim jarayoni rivojlangan sari axborot texnologiyalar bilan bir qatorda elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.



3-rasm. Qaytariluvchan aloqa.

Ushbu ssenariylar psixolog, dasturchi va dizaynerlar tomonidan qayta ishlanadi va elektron o'quv adabiyotiga kiritiladi. O'tkazilgan tadqiqotda biz pedagog va metodist faoliyatlarini yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha izlanishlar olib birildi. Bu ishning ilmiy yangiligi shundaki, eng avvalo pedagogik taksonomiyalarning "bilish", "tushunish", "amalda qo'llash", "tahlil qilish", "sintez", "baholash" kategoriyalariga mos ta'lim natijalari ishlab chiqildi. Keyin ularning har biriga mos bo'lgan va ularning o'zlashtirilishini kafolatlovchi didaktik materiallar ishlab chiqiladi. Faqat shundagina pedagogik ssenariy mukammal bo'ladi. Quyidagi jadvalda turli shakldagi o'quv faoliyatlari va ularda qo'llaniladigan didaktik materiallar qaysi kategoriyalarni o'zlashtirishga qaratilganligi (+), buning uchun qaysi kategoriyalar oldindan o'zlashtirilishi zarurligi (*) va qaysi kategoriyalarning o'zlashtirilishini to'liq ta'minlay olmasligi (x) haqida ma'lumotlar keltirilgan.(1-jadval).

O'quv faoliyati turlari va didaktik materiallar		Nazariy bilimlar		Amaliy ko'nikma va tajribalar	Kasbiy malakalar va ijodiy qobiliyatlar		
		Bilish	Tushunish	Amalda qo'llash	Tahlil qilish	Sintez	Baholash
Nazariy o'quv faoliyati (didaktik materiallar)	Og'zaki bayon va yozma matn	+	+	X			
	Rasm, sxema, grafik, formula, jadval	+	+	X			
	Mul'timedia, videomaterial	+	+	X			
	Test	*	*	+			
	Og'zaki va yozma nazorat	*	*	+			
Amaliy o'quv faoliyati va mustaqil ta'lim	Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari	*	*	+			
	Virtual trenajyor	*	*	+			
	Malakaviy amaliyot, KI, KL, MBI	*	*	+			
	Talabalar ilmiy-tadqiqot ishi	*	*	*			
Kasbiy faoliyat		*	*	*			
Ilmiy-tadqiqot faoliyati		*	*	*			

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kurs ishda asosan mamlakatda amalga oshiriladyotgan islohotlarning ustuvor vazifalarni bajarishda davlat moliyasini boshqarish organlarining oʻrni, ahamiyati, davlat byudjetining samarali ijrosini taʼminlashda byudjet ijrosining gʻaznachilik tizimini joriy qilish masalalari, gʻazna ijrosining faoliyat mexanizmi, Moliya vazirligining muhim tarkibiy boʻlinmasi boʻlgan Gʻaznachilik organlarining davlat mablagʻlarini boshqarishdagi faoliyatini takomillashtirish masalalari oʻrganildi.

1. XX asrning 20-30-yillarida mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida davlatning iqtisodiyotdagi roli oshib bordi va u koʻpchilik iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni oʻz zimmasiga oldi. Bu esa professional davlat xizmatini shakllantirish va barcha davlat boshqaruvi strukturalarini mustahkamlashni talab etdi. XX asrning 70-90-yillariga toʻgʻri keladigan navbatdagi maʼmuriy qayta qurishlar sharoitida esa davlat zimmasiga shunchalik koʻp vazifa va funksiyalar yuklandiki, natijada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kataklizmalar taʼsirida davlat bu majburiyatlarni bajarishga, “ogʻir yukni tortishga” qodir boʻlmay qoldi. Bu holatlar davlat boshqaruvi tizimida maʼmuriy islohotlar qilish zarurligini keltirib chiqardi. Islohotlar davlat moliyasini boshqarish tizimini ham qamrab oldi.

2. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni koʻzda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, soʻnggi ijobiy natijalarni koʻzlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pogʻonasiga koʻtarish talab etilmoqda.

3. Davlat moliyasini isloh qilish doirasida davlat byudjetining gʻazna ijrosini joriy etish, byudjet mablagʻlarini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib borayotgan bugungi davrda davlat byudjetining gʻazna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan

holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning ta'sirchan ishlashini ta'minlash zarur.

4. Davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy qilinishi munosabati bilan bu tizimning mukammal ishlashini ta'minlovchi barcha komponentlarini: qonuniy-huquqiy bazani; axborot-kommunikatsion texnologiyalarni; kadrlar tayyorlashni; byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmlarini doimo takomillashtirib borish maqsadga muvofiq;

Hulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bugungi bosqichida davlat moliyasini boshqarish va samaradorligini oshirish borasida ham o'z echimini kutayotgan muammolar talaygina. Bu barcha mutasaddi idoralar va alohida shaxslar zimmasiga ma'lum darajada mas'uliyat yuklaydi. Davlat moliyasini boshqarishda islohotlar olib borilayotgan va uning oldidagi vazifalarni bajarish uchun salmoqli mablag'lar sarflanar ekan, bu xarajatlar oxir-oqibat insonlarning farovon hayotiga, salomatligiga, bilim darajasining yuqori bo'lishiga, bandlikning ta'minlanishiga, qulay mahnat sharoitlarining yaratilishiga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir

Bitiruv malakaviy ishi doirasida quyidagi tafsialarni ishlab chiqdik:

1. Audiovisual va audiovertual usullarni ishlab chiqishning kelajak holatini tahlil qilish. O'quv jarayonida ularga qo'yiladigan talablar va ularni ishlab chiqish usullari va bosqichlari o'rganish.

2. Pedagogik eksperimentlarni tashkil qilish, eksperimentlar jarayonida natijalarni qayd qilish va mazkur usullarning mazmun-mohiyatini yoritish.

3. Barcha yo'nalishi va mutaxassisliklarga oid videoroliklar tanlansh va videorolikning pedagogik jihatlarini ochib berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ - huquqiy xujjatlar:

- 1 O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. //Xalq so'zi. 2000 yil, 14 yanvar. 4-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2001. - 39 b.
3. “Byudjeti tizimi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 14.12.2000y.
4. “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.08.2004.
5. “Byudjeti tizimi to'g'risida”gi va “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni: 12.12.2007.
6. “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. № 670-I-son. 29.08.1998 y.
7. “Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O'zR Vazirlar mahkamasining 16.06.07. 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 144-son Qarori 26.04.2002 y.
9. “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007.
10. “O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-532-son 18.12.2006.
11. “O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-744-son 12.12.2007.

12. “O‘zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-1024-son 29.12.2008.

13. “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi” Normativ-huquqiy xujjatlar to‘plami, T.: O‘zbekiston. 2007.

14. “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son qaroriga Ilova.

15. “Moliya organlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning xarajatlari to‘lovini nazorat qilish tartibi haqidagi Vaqtinchalik nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining № 63-son Buyrug‘i. 05.05.2005 y.

16. Samarqand viloyati mahalliy byudjeti g‘azna ijrosining hisobi bo‘yicha vaqtinchalik qoidalar (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 24 iyulda 1599-son bilan ro‘yxatga olingan).

17. Byudjet mablag‘larini tasarruf qiluvchilarning (oluvchilarning) shaxsiy schyotlarini ochish va berkitish bo‘yicha vaqtinchalik qoidalar (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 24 iyulda 1600-son bilan ro‘yxatga olingan).

18. “Moliya organlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning xarajatlari to‘lovini nazorat qilish tartibi haqida” Vaqtinchalik Nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning

asarlari va ma‘ruzalari:

19. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: «O‘zbekiston», 1998 yil. 86 b.

20. Karimov I.A., “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida”- T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2005, 525 bet.

21. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti yo‘li. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2007 y.

22. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilash va iqtisodiy islohotimizning pirovard maqsadidir. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2007 y.

23. Karimov I.A. “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2008 y.

24. “Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir”. Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi// 08.12.07.

25. “Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi // 08.02.08.

26. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2008 yil 6 dekabr.

27. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2009 yil 14 fevral.

28. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

29. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O‘zbekiston, 2009. – 24 b.

Darslik va o‘quv adabiyotlari:

30. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008.

31. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvennyy byudjet: Uchebnik. T. "IQTISOD-MOLIYA", 2007.

32. Malikov T.S. Byudjet daromadlari va xarajatlari/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 245 s.

33. Malikov T.S. Davlat byudjeti/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 84 s.

34. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O‘quv qo‘llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", TMI-2008. 98 b.

35. Bekmurodov A.SH., G‘afurov U.V. O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo‘nalishlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007.

36. I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2009.

37. Qosimova G. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.

38. Kuchkarov D.J., Principy organizatsii kaznacheyskogo ispolneniya Gosudarstvennogo byudjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. - T.:Mir ekonomiki i prava. 2005.

39. G.Qosimova. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008.

40. G.Qosimova. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008.

41. Nurmuhamedova B., Kabirova N. Finansy. T:, Izdatelskiy dom “Tasvir”, 2008.
42. Djamalov X., Aliev S., Byudjetnaya sistema. T:, Izdatelskiy dom “Tasvir”, 2008.
43. Kirilova G.I. Informatsionnye texnologii i komp’yuternye sredstva v obrazovanii // Educational Technology and Society. - 2000. - N 4(1).
44. Вымытин V.M., Demkin V.P. Psixologicheskie problemy sozdaniya avtorskix mul’timedia-kursov//Psixologicheskiy universum obrazovaniya cheloveka noeticheskogo: Mater. Mejdunar. Simpoz. - Tomsk, 1998.
45. Bent B., Andresen, Katya van den Brink. Mul’timedia v obrazovanii: Spetsializirovannyi uchebnyy kurs / Avtorizovannyi per. s angl. – M.: Izd. dom «Obuchenie-Servis», 2005.
46. Nechaev N.N. Psixologo-pedagogicheskie osnovy formirovaniya professional’noy deyatel’nosti. –M.: MGU. 1988 g. 350 s.
47. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.

Internet saytlari:

www.mf.uz

www.gov.uz

www.mfa.uz

www.darvoza.uz

www.undp.uz

www.lex.uz

ILOVALAR

1-ilova

1. Sizda ushbu videorolik qanday ta'surot qoldirdi?
 - A. YUqori.
 - B. YAxshi
 - C. Juda yomon
 - D. Bilmadim
2. Videorolikda tanishtirilgan texnologik jarayonlar bilan tanishmisiz?
 - A. Ha
 - B. Yo'q
 - C. Etarli daraja emas
 - D. Boshqa javob (yozing)
3. Videorolikni ko'rganingizdan so'ng ushbu sohaga bo'lgan qiziqishingiz yanada ortdimi?
 - A. Ha
 - B. Yo'q
 - C. Xali jiddiy o'ylaganim yo'q
 - D. Bu sohada majburan o'qiyapman
4. Videorolikdagi qaysi lavhalar ayniqsa sizning e'tiboringizni tortdi? Ularning ro'yxatini yozing.
5. Sizning fikringizcha videorolik qanday maqsadda ishlab chiqilgan?
 - A. Texnologik jarayonni ochib berish maqsadida
 - B. Mahsulotni o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish uchun
 - C. Mahsulot reklamasi maqsadida
 - D. Boshqa javob (yozing)
6. Sizning fikringizcha videorolik asosan necha bosqich (jarayon, joy va binoga ko'ra) dan iborat?
 - A. 3 ta
 - B. 5 ta

C. 2 ta

D. Boshqa javob (yozing)

7. Videorolikda mahsulot ishlab chiqish texnologiyasiga e'tibor qay darajada?

A. Texnologik jarayonlarga e'tibor etarli darajada

B. To'liq ma'lumot berilmagan

C. Qisqa vaqtda ko'p miqdorda ma'lumot berilgan

D. Boshqa javob (yozing)

8. Videorolikda mahsulot ishlab chiqish bosqichlarining qaysi biriga eng kam vaqt va e'tibor ajratilgan?

A. CHaqish va tozalash jarayoni

B. Mahsulotga birlamchi ishlov berish jarayoni

C. Qadoqlash jarayoni

D. Laboratoriya tekshiruvi jarayoni

9. Ushbu videorolikda reklamanning mavjidliligi sizga qanday ta'surot qoldirdi?

A. YAxshi

B. YOmon

C. E'tibor bermadim

D. Boshqa javob (yozing)

10. Videorolikdagi qo'shimcha lavhalar berilayotgan asosiy ma'lumotlardan (mahsulot ishlab chiqish texnologiyasiga oid) sizni chalg'itmiyaptimi?

A. Aksincha motivatsiyani oshirib, e'tiborni jamlashga yordam berdi.

B. Qiziqish ya'nada ortdi

C. Ma'lumotni qabul qilishga to'sqinlik qilmoqda

D. Boshqa javob (yozing)

11. Sizningcha ushbu videorolik ta'lim tizimida pedagogik jihatdan olib qaraganda o'quv maqsadda namoyish qilish uchun mos keladimi?

A. Ha jida mos

B. Yo'q mos emas

C. Bilmayman

D. Taxlil qilish lozim

12. Videorolikni ko‘rish davomida aqliy zo‘riqish yuz berdimi?

A. Ha

B. Yo‘q

C. Unchalik emas

D. Boshqa javob (yozing)

13. Videorolikda “Kungaboqar urug‘idan moy olish texnologiyasi”ga oid zamonaviy texnologik usullar keltirilib o‘tilganmi? Ularning ro‘yxatini yozing.

14. Nima uchun videorolikda mahsulot reklamasiga ajratilgan lavhalar har 90 sekundda qaytarilmoqda?

A. Ishlab chiqazilayotgan mahsulot nomini yodga solish uchun

B. Ishlab chiqazilayotgan mahsulot haqida ko‘proq ma’lumot berish uchun

C. Tomoshabinning ongini dam oldirish uchun

D. Boshqa javob (yozing)

15. Sizningcha videorolik yaratishda nimalarga e’tiborni ko‘proq qaratish kerak?

A. Lavhalarga vaqtni to‘g‘ri taqsimlanishiga

B. Ranglarni to‘g‘ri tanlanishiga

C. Ma’lumotlarning to‘liqliliga

D. Boshqa javob (yozing)

16. Videorolikda qanday ranglarni ko‘proq bo‘lishini xohlar edingiz?

A. Sariq

B. Ko‘k

C. YAshil

D. Boshqa javob (yozing)

17. Videorolikda qanday turdagi musiqa yangrashini istar edingiz?

A. Klassik

B. Mumtoz

C. Zamonaviy

D. Boshqa javob (yozing)

18. Videorolikni ovozlashtirishda kadr ortida kim so‘zlashini xohlar edingiz?

A. Ayol diktör

B. Erkak diktör

C. Mashxur san’atkor yoki kino yulduz

D. Boshqa javob (yozing)

19. Videorolikda tarixiy lavhalar bo‘lishini istar edingizmi?

A. Ha menga ular juda yoqadi

B. Yo‘q menga bu narsa umuman yoqmaydi

C. Befarqman

D. Boshqa javob (yozing)

20. Talaba do‘stlaringizga ushbu videorolikni tomosha qilishni tavsiya qilasizmi?

A. Ha

B. Yo‘q

C. Bilmayman

D. Boshqa javob (yozing) _____

21. Ushbu videorolikda qanday lavhalar mavjud:

- texnologik jarayon

- tabiiy manzaralar

- kadr ortidagi ovoz

- ishlab chiqarish korxonasi

- reklama

- suhbat

- animatsiya

- bahs-munozara

- tanqid

- tarixiy ma’lumotlar

- yangi texnologiya

- texnologik jihozlar

- malakali mutaxassislar fikri

- kadr ortidagi musiqa

1. Videorolikning Sizga nimasi yoqdi?
2. Nima uchun nomini “Korona izobiliya” deb nomlangan?
3. Videorolikda qanday lavhalar namoyish qilingan?
4. Ruschani yaxshi bilasizmi, qaysi joylarini yaxshi tushunib oldingiz?

Qaysinisi tushunarsiz?

5. Videorolikda necha xil jarayon aks ettirilgan?
6. Namoyish qilingan texnologik jarayonlarning qaysi biriga eng kam vaqt

ajratilgan?

7. Videorolikda fikrlashni chalgʻitadigan lavhalar mavjudmi?
8. Videorolikdagi mavjud lavhalarning qaytarilish ketma – ketligi

mavjudmi?

9. Bunday videoroliklarda qanday turdagi musiqa yangrashini istar edingiz?
10. Sizningcha diktor kim boʻlishi lozim?
11. Diktorning ovozi qanday talablarga javob barishi kerak?
12. Taʼlim jarayonida videoroliklarni namoyish qilishdan maqsad nima deb

oʻylaysiz?

13. Texnologik jarayonlarning barchasi toʻliq ochib berilganmi?
14. SHunga oʻxshash videoroliklarni tomosha qilganmisiz?
15. Videorolikni ishlab chiqarishdan asosiy maqsad nima deb oʻylaysiz?
16. Videorolik tahminan qancha vaqt davom etdi?
17. Videorolik vaqtining Sizningcha qancha foizi mahsulot reklamasi

uchun ajratilgan?

18. Eʼtiboringizni oʻziga tortgan lavhalar bormi?
19. Videorolikdan oʻzingizga yangi maʼlumot oldingizmi?
20. Videorolikda Sizga maʼqul boʻlmagan joylar bormi?